



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: Saydamatov Ikromjon Nazirovich

Abduhakimova Visola Abdulla qizi,
*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti,
Ingliz filologiyasi faktulteti 1-bosqich talabasi
Yunusobod tumani 9 mavze 4 uy 5 xonadon
+9989900334484
visolaabduhakimova@gmail.com*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175554>

***Annotatsiya.** Boshlang'ich ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llashning xususiyatlari haqida so'z boradi.*

***Tayanch so'zlar:** maktab, ta'lim, tarbiya, boshlang'ich, tillar, texnologiya, xorijiy.*

***Аннотация.** Особенности использования педагогических и инновационных технологий при обучении иностранным языкам в начальной школе.*

***Ключевые слова:** школа, образование, воспитание, начальное, языки, технологии, иностранный.*

***Abstract.** Features of using pedagogical and innovative technologies in teaching foreign languages in primary education.*

***Key words:** school, education, upbringing, primary, languages, technology, foreign.*

Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta o'zlashtirishi, xorijiy tillarni o'rganishi uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida yuz minglab yoshlar muayyan mutaxassislik bo'yicha ta'lim olish bilan birga, chet tillarini ham puxta o'rganmoqda.

Bugun yurtimizdagi har bir umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida xorijiy tillarni katta qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganmoqda. Ta'lim muassasalariga ilk bor qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilarining xorijiy tillarni qunt bilan o'rganayotgani, bunda mashg'ulotlar og'zaki va o'yin tarzida olib borilmoqda.

Mamlakatimizda chet tillarni nafaqat maktablarning boshlang'ich sinflarida, balki uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida mukammal o'rgatish samaradorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Ta'lim-tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Chet tilini o'rganish o'quvchining mushohada qilish qobiliyatini rivojlantiradi, shu tarzda o'quvchi asta-sekin takomillashib, taraqqiyotga erisha boshlaydi. Ammo bu jarayon o'quvchi va o'qituvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat, qunt va irodani talab etadi.

Chet tilini samarali egallash faqatgina o'quvchining o'ziga bog'liq bo'lmay, balki uni o'rgatayotgan o'qituvchining malakasiga ham bevosita bog'liq. Bu maqsadga erishishda yordam beruvchi asosiy omil o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirining samaradorligini oshirishdan, darslarda o'quvchi va o'qituvchi orasidagi muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatdan o'zaro mosligidan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tez charchashi, diqqatini bir joyga jamlay olmasligi, eslab qolish darajasi hali yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning yosh va psixologik xususiyatlariga xosdir. Ma'lumki, ushbu yosh davrlarida o'yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Negaki 3 yoshdan boshlab 6, 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'yin faoliyati va uning ahamiyati boshlang'ich sinflarda ham yo'qolmaydi, chunki, chet tilida o'yinning ta'limiy imkoniyatlari keng bo'lib, belgilangan mavzu bo'yicha talab etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarga o'yin orqali erishish mumkin. Ma'lumotlarda e'tirof etilishicha, chet tili bo'yicha maxsus mashqlarni 4 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'rgatish ijobiy natija beradi.

Buning uchun boshlang'ich sinflardan boshlab chet tilini o'rgatishda darslarda o'yin usulidan foydalanish samarali bo'lib, bunda bolalarning kommunikativ ko'nikmalari, emotsional va aqliy imkoniyatlarining safarbar etilishi, ta'limiy qobiliyatlari, gapirish malakalari, ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantiruvchi usul - ingliz tilining vositalari yordamida tasavvur qilish, verval, noverval kommunikatsiya shakllarini qo'llash omillari kengayadi. Bunda lug'at boyligi faollashib, noan'anaviy kommunikativ vaziyatda bilimlarni qo'llashga hissiy-intellektual maqsad shakllanadi. Tasvirlab berish orqali esa o'quvchilarni so'z boyliklaridan foydalangan holda muloqot jarayoniga jalb qilish mumkin. Bu usul universal bo'lib, tilning leksika va grammatika bo'limlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bugungi kunning yoshlari kompyuter, internet, uyali telefonlarni puxta egallamoqda. Bu ham xorijiy tilni o'rganishida katta yordam bermoqda. Ya'ni bularning 60-70% ingliz, ruz, nemis tillarida berilmoqda. Bugungi kunning yoshlariga shunday zamonaviy imkoniyatlar yaratilmoqdaki, bundan bugungi kun yoshlari unumli foydalanishlari zarurdir.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Shu o'rinda o'tmishga nazar solsak, qadimgi davrlardanoq ota - bobolarimiz farzandlariga turli bilimlarni o'rgatish chog'ida rangli toshlar, hayvon shoxlari va suyaklari kabi yoshlarni qiziqishlarini ortiradigan narsa - buyumlardan foydalanishgan. Yevropada avvaldan yunon tili, keyinchalik lotin tilini o'rganishga qiziqish ortib borgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr davomida esa fransuz tili, XX asrda esa ingliz tili va nihoyat, nemis tili o'rganib kelingan. Musulmon dunyosida esa arab tili, qisman fors tili chet tillar sifatida o'rganilar edi. Arab, fors, turkiy tillar esa islom dini asarlarini o'rgatish vositasi bo'lib, oliy diniy o'quv yurtlarida chuqur o'rgatilgan.

Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ham ta'lim va tarbiya jarayonida chet tillarini o'rganish har qachongidan ham muhim sanalmoqda. Chunki, globallashuv jarayonida aloqa va telekommunikatsiya vositalari orqali tez tarqalayotgan turli axborot va xabarlar aksariyati o'zga tillardadir. Achinarlisi shundaki, internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan bunday axborot va yangiliklarni "xaridori" aksariyatini yoshlar tashkil etmoqda. Agar bugungi kunning yoshlari har tomonlama shakllangan va chet tillarini mukammal egallasalar global tarmoq orqali tarqatilgan zararli g'oyalar asiriga aylanmaydilar. Aksincha rivojlangan mamlakatlarning keng kutubxonalaridan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar va olgan bilimlarini yanada chuqurlashtiradilar, hamda dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarning yoshlari bilan teng qatorda bellasha oladilar. Bunday zamonaviy yoshlarga ta'lim berayotgan pedagog ham o'z navbatida bilimli, zukko, ma'naviyatli va har tomonlama intellektual salohiyatga ega bo'lishlari shart. Modomiki bugungi globallashuv jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Ulardagi barcha manba va ma'lumotlarning asosiy qismi ingliz va boshqa yetakchi xorijiy tillarda ifodalangan. Shunday ekan, chet tillarni o'rganish yoshlarimizning bilim doirasini kengaytiradi. Muhimi, rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydigan darajadagi bilim va ko'nikmalarni egallashning imkoniyatini oshiradi. Zero, til bilgan el biladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Қарори Маърифат.– Т., 2012. – 12-декабр. (№ 99).
3. Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. – Т., Ўқитувчи, 2012.